Mintaqa aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifini ishlab chiqish.....	848
Xodjanijazov Shohruh Yuldashovich	
Xususiy oliy ta'lim muassasalari menejmentining nazariy jihatlarini va o'ziga xos xususiyatlari.....	856
Karimov Ulug'bek Usmonovich	



Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi	861
G'aniyev Botir Baxtiyorovich	
Повышение инвестиционной привлекательности – важное условие повышения конкурентоспособности предприятий.....	865
Каримова Дилафруз Садирдин кизи	
Yevropa ittifoqi davlatlari tijorat banklarining soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibi	870
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari	878
Shaniyazova Zamira	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarni shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
Alimova Guzal Abduxakimovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili	895
Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	905
X.A.Raximov	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumot bazasida shakllanishi.....	910
Ergashev Uyg'un Jabborovich	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori	916
Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi	



BARQAROR RIVOJLANISH DOIRASIDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA KORPORATIV BOSHQARUV (ESG) KO'RSATKICHLARINING YASHIL TEXNOLOGIYALAR INNOVATSIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASH



Meliq'zиеva Dilrabo Muxitdin qizi

TDIU tayanch doktoranti va "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası assistent o'qituvchisi
ORCID: 0009-0006-2734-8981

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida korporativ iqtisodiy o'sishni barqaror rivojlanish bilan muvozanatlashtirish global miqyosda ko'plab davlatlar uchun dolzarb masalaga aylangan. Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish hali-hanuz ko'plab mamlakatlar uchun katta muammo bo'lib qolmoqda, ayniqsa, ekologik ifloslanishning ortib borayotgan sharoitida. Ushbu tadqiqot yashil moliyaning barqaror infratuzilmani rivojlantirish, yashil texnologiyalarda innovatsiyalarni ilgari surish, korporativ ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini o'rganadi. ESG ko'rsatkichlari kapital bozori axborot vositachilari tomonidan kompaniyalarning barqarorlik salohiyatini baholashda indikator sifatida xizmat qiladi. Ushbu baholardagi farqlar kompaniya ichidagi korporativ boshqaruv hamda tashqi moliyalashtirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatib, yashil innovatsiyalarning miqyosi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu ilmiy ish ESG ko'rsatkichlari va korporativ yashil innovatsiya salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish borasida mavjud ilmiy bazani boyitadi va kengaytiradi. Shu bilan birga, ESG doirasida yashil innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliyotga doir yangi g'oyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: yashil moliya, yashil texnologiya, barqarorlik, ESG ko'rsatkichi, yashil texnologiyalar innovatsiya salohiyati.

Abstract: With the rapid advancement of the global economy, balancing corporate economic growth with sustainable development has increasingly become a central concern for nations worldwide. Achieving the Sustainable Development Goals (SDGs) continues to be a substantial challenge for numerous countries, particularly in light of escalating environmental pollution. This study examines the role of green finance in fostering sustainable infrastructure, driving innovation in green technologies, enhancing corporate social responsibility, and promoting economic stability. ESG performance serves as an indicator of how capital market information intermediaries evaluate the sustainability potential of companies. Variations in these evaluations can influence both internal corporate governance and access to external financing, ultimately impacting the extent and effectiveness of green innovation within firms. The findings of this thesis contribute to and broaden the existing body of research concerning the relationship between ESG performance and corporate green innovation capabilities. Moreover, this study aims to offer novel practical insights for enhancing green innovation within the context of the ESG framework.

Key words: green finance, green technology, sustainability, ESG performance, green technology innovation capability.

Аннотация: С быстрым развитием мировой экономики всё большее значение приобретает задача нахождения баланса между экономическим ростом компаний и устойчивым развитием, что становится ключевой проблемой для многих стран мира. Достижение Целей устойчивого развития (ЦУР) по-прежнему остаётся серьёзным вызовом для многих государств, особенно в условиях усиливающегося загрязнения окружающей среды. Настоящее исследование рассматривает роль зелёного финансирования в формировании устойчивой инфраструктуры, стимулировании инноваций в области зелёных технологий, повышении корпоративной социальной ответственности и содействии экономической стабильности. Показатели ESG (экологические, социальные и управленческие факторы) служат индикатором оценки потенциальной устойчивости компаний со стороны информационных посредников на рынке капитала. Различия в таких оценках могут оказывать влияние как на внутреннее корпоративное управление, так и на доступ к внешнему финансированию, что в конечном итоге влияет на масштаб и эффективность зелёных инноваций в компаниях. Полученные результаты способствуют углублению существующей научной базы по изучению взаимосвязи между эффективностью ESG и инновационными возможностями компаний в области зелёных технологий. Кроме того, данное исследование направлено на предоставление новых практических рекомендаций по улучшению зелёных инноваций в контексте ESG-рамки.

Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёные технологии, устойчивое развитие, ESG-эффективность, инновационный потенциал в области зелёных технологий.



KIRISH

Zamonaviy jamiyatda bir martalik plastik mahsulotlardan keng ko'lamda foydalanish va chiqindilarni barqaror bo'lmagan usullar orqali yo'q qilish jiddiy ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ekstremal ob-havo hodisalarining tez-tez takrorlanishi insonlarning turmush tarziga hamda sanoat faoliyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Biror davlat faqat iqtisodiy barqarorlikka urg'u berganida, ko'pincha ijtimoiy va ekologik barqarorlik e'tibordan chetda qoladi. Chunki tez sur'atlarda iqtisodiy o'sish transport, sanoat va karbonat chiqindilari chiqaradigan boshqa faoliyatlar hajmini oshirishni talab etadi. [1] Shu bois, har bir mamlakat uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalarida barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Bu yo'lda siyosatni muntazam baholab borish, uni takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlab, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhitni asrashni izchil tarzda uyg'unlashtirish zarur.

Barqaror rivojlanishga bo'lgan talab natijasida korxonalar tomonidan ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj oshmoqda va bu an'anaviy biznes o'sishi tushunchasiga yangicha yondashuvni shakllantirmoqda. Endilikda barqaror yashil rivojlanishni ta'minlash zamonaviy korxonalar uchun muqarrar yo'l sifatida qaralmoqda. Biroq ko'plab korxonalar barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish bilan iqtisodiy foyda olish o'rtasida muvozanatni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuning uchun ham manfaatdor tomonlar yashil texnologik innovatsiyalarni ushbu muammoning samarali yechimi sifatida qaramoqdalar.

Muhim iqtisodiy subyekt sifatida kompaniyalar ekologik va iqtisodiy taraqqiyotni uyg'unlashtirish uchun yashil innovatsion faoliyatda faol ishtirok etishlari lozim. Bu orqali ular iste'mol va ifloslanish darajasini izchil ravishda kamaytirib, o'z faoliyatini yashil yo'nalishga o'zgartirishlari mumkin. Natijada iqtisodiy o'sish bilan ekologik himoya o'rtasida barqarorlik holatini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yashil texnologik innovatsiyalar uzoq muddatli siklga va katta hajmdagi sarmoyaga ehtiyoj sezadi, bu esa qisqa muddatda korxonalar uchun kam rentabellikni anglatadi. Shu sababli, barqarorlikni ta'minlash va korxonalarning yashil innovatsiyalarni rivojlantirish motivatsiyasini oshirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish nihoyatda muhimdir. Bu esa iqtisodiy va ekologik rivojlanishni uyg'unlashtirish orqali yuqori sifatli taraqqiyotga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil moliyaning barqaror infratuzilmadagi o'rni

"Yashil moliya" (Green Finance – GF) atamasi yaxshilangan ekologik natijalarga erishishga qaratilgan iqtisodiy jihatdan asoslangan har qanday faoliyatni anglatadi. Yashil moliya – bu milliy va xalqaro hukumatlar hamda xususiy sektor tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuslarni o'z ichiga oladi. U uzoq muddatli, foydali biznes strategiyalarini ishlab chiqishni, ekologik barqarorlik bilan bog'liq savdo faoliyatini yo'lga qo'yishni, turli loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishni hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni qamrab oladi. Shu yo'l bilan yashil moliya jamiyat farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. [2]

Raqamli tadqiqotda Yashil Moliya (GF) bilan Hududiy Iqtisodiy Rivojlanishning Barqarorligi (SDRE) o'rtasidagi ijobiy va muvofiqlashtirilgan bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, GF va SDRE birgalikda yuqori darajada faoliyat olib borandagina ularning o'zaro uyg'unlik effekti ortadi; biroq bu ko'rsatkichlardan biri past bo'lsa, hamkorlik samarasi kamayadi.

Yashil moliyaning barqaror infratuzilma rivojlanishidagi o'rni nihoyatda muhim, chunki u iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, karbon chiqindilarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni rag'batlantiruvchi loyihalar uchun kapital jalb etishni ta'minlaydi. Moliyaviy bilim va tajribani ekologik va ijtimoiy omillar bilan uyg'unlashtirish orqali ushbu soha mutaxassislari yanada barqaror va chidamli infratuzilmaga o'tishni jadallashtirishda vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Yashil texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishdagi yashil moliyaning roli

Yashil moliya (GF) Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDGs) erishish kontekstida Yashil Texnologik Innovatsiyalarni (GTI) qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. GF mablag'larni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan, qazilma yoqilg'ilarga qaramlikni qisqartiradigan va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni targ'ib qiladigan jarayonlar va mahsulotlarni tadqiq qilish, innovatsiya va joriy etishga yo'naltiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yashil moliya korxonalarga ekologik toza texnologiyalarga investitsiya kiritishga imkon yaratishdan tashqari, ushbu innovatsiyalarning turli sanoat tarmoqlari bo'ylab keng tarqalishiga ham ko'maklashadi [3]. An'anaviy moliyaviy tizimlardan farqli o'laroq, yashil moliya moliyaviy xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi va ko'proq kompaniyalarni yashil texnologiyalar bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarga (R&D) jalb etadi [4].

An'anaviy moliyadan yashil moliyaviy modelga o'tish yashil texnologik innovatsiyalar (GTI) bilan bog'liq



yuqori xatarlar va xarajatlarni kamaytirib, korxonalar uchun bu sohada taraqqiyotga erishishni yanada imkonli qiladi. Bundan tashqari, hukumat siyosatlari va institutsional qo'llab-quvvatlash omillari GF investitsiyalarini muhim sohalarga yo'naltirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi – bu bir qator so'nggi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [5].

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yashil moliyaviy tashabbuslar odatda toza energiya ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish texnologiyalariga yo'naltiriladi. Biroq, yashil moliyani tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarning turli sohalarda innovatsion faoliyatga qanday ta'sir qilishi borasida hali yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Yashil texnologik innovatsiyalar (GTI) ilmiy va texnologik yutuqlardan foydalanib, atrof-muhitga minimal yoki mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir [6]. Yashil texnologiyalar mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari hamda yakuniy foydalanish bosqichida ekologik sezgirlikni o'z ichiga oladi [7].

Yashil moliya (GF) tuzilmasi karbon chiqindilarini kamaytiruvchi, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi va davlatlarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini kuchaytirishga qaratilgan texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradi. [8] raqamli tadqiqotda yashil moliyaning shaharlardagi havo ifloslanishiga ta'siri, xususan, korporativ texnologik innovatsiyalar orqali amalga oshishi statistik asosda tahlil qilingan. Ko'pgina mavjud tadqiqotlar makro darajadagi omillarni tahlil qilgan bo'lsa-da, ushbu izlanish yashil moliyaning havo ifloslanishiga ta'sir ko'rsatishidagi mikro-mexanizmlarni, ya'ni korxonalar innovatsiyasining vositachilik rolini chuqur yoritib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil davomida bir qancha tadqiqot usullari qo'llanildi, xususan: kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabi metodlar keng tatbiq etildi. Shu bilan birga, tahlil jarayonlarida tahlil va sintez usullari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik nuqtayi nazardan, korxonalar o'zlarining ishlab chiqarish jarayonlarini har tomonlama baholashi, ya'ni operatsion faoliyatlar bilan ekologik ta'sirlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq belgilashi lozim. Ayniqsa, energiya sarfi yuqori yoki atrof-muhitga ko'proq zarar yetkazuvchi bosqichlarni aniqlab olish orqali korxonalar aniq va samarali yashil texnologiyalarni tadqiq qilish va rivojlantirish (R&D) strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Masalan, kimyo sanoatidagi korxonalar karbonat angidrid chiqindilari yuqori bo'lgan reaksiya bosqichlarini aniqlab olib, yangi katalizatorlar ishlab chiqish yoki reaksiya sharoitlarini optimallashtirishga sarmoya kiritish orqali chiqindilarni sezilarli darajada kamaytirishlari mumkin.

Bundan tashqari, korxonalar soha doirasida umumiy yashil texnologiyalar standartlarini shakllantirishda faol ishtirok etishlari zarur. Bunday ishtirok korxonalarini nafaqat innovatsiya yo'nalishida yetakchi pozitsiyaga olib chiqadi, balki butun soha bo'yicha yashil taraqqiyot yo'nalishini belgilash imkonini beradi. Natijada bu ham raqobatbardoshlik, ham ekologik samaradorlikni oshiradi.

Resurslardan foydalanish bo'yicha, korxonalar xom ashyo xarididan boshlab, ishlab chiqarish, qayta ishlash va foydalanishdan keyingi bosqichlarga bo'lgan to'liq hayot aylanish jarayonini qamrab oluvchi resurs menejmenti tizimini joriy etishlari zarur. Bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanish, ularni qayta ishlash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish orqali yangi daromad manbalarini shakllantirishga va innovatsion biznes modellarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yakunda bunday yondashuv ESG doirasida ekologik natijalarni yaxshilash va innovatsion salohiyatni kuchaytirishga hissa qo'shadi.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan, korxonalar xodimlarni yashil innovatsiyalarda ishtirok etishga rag'batlantiruvchi kompleks tizimni joriy etishlari zarur. An'anaviy o'quv uslublaridan tashqari, virtual reallik kabi ilg'or texnologiyalarni jalb qilish orqali interaktiv va immersiv ta'lim muhitini yaratish mumkin, bu esa barqarorlik bo'yicha ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, korxonalar ichida yashil innovatsiyalar bo'yicha inkubatorlarni tashkil etish muhim. Bunday inkubatorlar xodimlarga moliyalashtirish, uskunalar bilan ta'minlash, professional maslahatlar kabi zarur resurslarni taqdim etishi lozim. Bu innovatsion g'oyalarni tezkorlik bilan amaliy va bozorda tatbiq etiladigan yechimlarga aylantirish imkonini beradi.

Jamiyat bilan aloqalar va manfaatdor tomonlar hamkorligi doirasida esa, korxonalar yashil sanoat ekotizim ittifoqlarini shakllantirishda faol ishtirok etishlari zarur. Turli resurslarni integratsiyalash va manfaatdor tomonlar manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali bunday hamkorlik tarmoqlari yashil innovatsiya tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga zamin yaratadi. Bunday sherikliklar kompaniyalarning ijtimoiy ta'sirini va innovatsion salohiyatini oshiradi, shuningdek, ESG doirasida ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan innovatsion faoliyatni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.



Boshqaruv nuqtayi nazaridan, korxonalar strategik rejalashtirishda ESG ko'rsatkichlarini asosiy element sifatida qamrab oluvchi qaror qabul qilish tizimlarini tubdan qayta ko'rib chiqishlari kerak. Direktorlar kengashi va ijrochi rahbariyat ESG tamoyillarini barcha qaror qabul qilish darajalarida tizimli ravishda integratsiya qilishi zarur. Bunda katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali stseneriy modellashtirish va ESG asosida qaror tahlilini amalga oshirish mumkin, bu esa korporativ boshqaruvda ilmiy asos va ishonchlikni oshiradi.

Bundan tashqari, ko'p bosqichli ESG samaradorligini baholash va nazorat qilish tizimini yaratish zarur. Ushbu tizim direktorlar kengashi, nazorat kengashi, ichki audit bo'limlari va mustaqil uchinchi tomon tashkilotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Bu ESG strategiyalarining samarali amalga oshirilishini va monitoringini ta'minlaydi. Shu bilan birga, korxonalar xalqaro darajada tan olingan ESG standartlariga muvofiq ishlashlari, shuningdek, blockchain kabi texnologiyalarni qo'llab, ESG hisobotlarining haqqoniyligi, aniqligi va o'zgarmasligini kafolatlashlari zarur.

Bunday boshqaruv yangiliklari orqali korxonalar bozorda ishonchni mustahkamlashlari, boshqaruv amaliyotlarini yuksaltirishlari va innovatsiyadagi obro'larini oshirishlari mumkin. Bu esa, kuchli ESG boshqaruvi va yashil innovatsion salohiyat o'rtasida o'zaro mustahkamlovchi munosabatni shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari yashil moliyalashtirishning barqaror infratuzilma rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil moliyaviy investitsiyalarni ko'paytirish barqarorlik maqsadlariga mos infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadqiqot yashil moliyalashtirishning yashil texnologiyalar innovatsiyasiga (GTI) ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Bu esa moliyaviy vositalarning atrof-muhit barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi texnologik taraqqiyotni rag'batlantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi.

Shuningdek, tadqiqot yashil moliyalashtirish bilan Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (SDG) uchta asosiy yo'nalishi – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik – o'rtasidagi bog'liqlikda barqaror infratuzilmaning vositachilik (mediatciya) rolini aniqlaydi. Ushbu xulosa yashil moliyalashtirishning keng qamrovli barqarorlik natijalariga ta'sir ko'rsatishida barqaror infratuzilmaning asosiy yo'nalish sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha aniq maqsadlarga qaratilgan strategiyalarni faol amalga oshiradigan va ESG tamoyillarini o'z faoliyatining barcha bosqichlariga integratsiya qilgan korxonalar ESG samaradorligi hamda yashil innovatsion salohiyatni sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday kompleks integratsiya nafaqat uzoq muddatli barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi va global raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, balki dolzarb ekologik muammolarni hal etishga va ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yashil transformatsiyasiga real hissa qo'shadi. Natijada, korxonalar kelajak bozorlarida raqobat ustunligini qo'lga kiritishlari va iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy sohalarida muvozanatli va o'zaro foydali natijalarga erishishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Al-Emran M 2023 Beyond technology acceptance: development and evaluation of technology-environmental, economic, and social sustainability theory *Technology in Society* 75 102383
2. Ma H et al 2023 How does green finance affect the sustainable development of the regional Economy? Evidence from China *Sustainability* 15 3776
3. Wang K-H et al 2022 Does green finance inspire sustainable development? Evidence from a global perspective *Economic Analysis and Policy* 75 412–26
4. Brunnhuber S and Brunnhuber S 2021 Beyond the mantra of traditional finance: significance and limits of the conventional approach *Financing Our Future: Unveiling a Parallel Digital Currency System to Fund the SDGs and the Common Good* 31–66
5. Chen D, Hu H and Chang C P 2023 Green finance, environment regulation, and industrial green transformation for corporate social responsibility *Corporate Social Responsibility and Environmental Management* 30 2166–81
6. Umar M et al 2021 The imperativeness of environmental quality in the United States transportation sector amidst biomass-fossil energy consumption and growth *J. Clean. Prod.* 285 124863
7. Umar M et al 2021 The impact of resource curse on banking efficiency: evidence from twelve oil producing countries *Resour. Policy* 72 102080
8. Zakari A 2022 The role of green finance in promoting sustainable economic and environmental development *Studies of Applied Economics* 40
9. <https://www.oecd.org/>
10. <https://www.un.org/en/climatechange/cop26>
11. <https://www.climatebonds.net/market/data>
12. Начало формы
13. Конец формы



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
